

APPLIKATSIYA MASHG‘ULOTLARIDA BOLALAR IJODINI RIVOJLANTIRISH

Sanginova Gulnoza Baxodirovna

Qo‘qon Universiteti O‘qituvchisi

Tojialiyeva Oydinoy

Maktabgacha Ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454484>

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini applikatsiya mashg‘ulotlari orqali shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Applikasiyaning nafaqat badiiy-estetik, balki bolaning nutqi, mayda motorikasi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy usullardan voz kechib, noodatiy materiallar (mato, don-dun, tabiiy va chiqindi ashyolar) bilan ishlashning afzalliklari hamda innovatsion texnikalarni qo‘llash usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, bolaning individual ijodiy erkinligini ta‘minlashda pedagogik yondashuvlar, bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otish va estetik didni tarbiyalash masalalari keng muhokama qilingan. Ushbu ma‘lumotlar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilari va soha mutaxassislari uchun muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Applikatsiya, ijodkorlik, maktabgacha ta‘lim, mayda motorika, tasavvur, noodatiy materiallar, innovatsion texnika, estetik tarbiya, mantiqiy fikrlash, sensor rivojlanish, badiiy faoliyat, erkin mushohada, kreativlik, mozaika, kollaj.

Kirish: Har bir bola dunyoga kelganda u o‘zida tug‘ma ijodkorlik qobiliyatini olib keladi. Bolalik bu tasavvurlarning cheksiz ummoni bo‘lib unda har bir narsa mo‘jizaga aylanishi mumkin. Maktabgacha ta‘lim jarayonida bolaning mana shu ijodiy salohiyatini ochib berishda tasviriy faoliyat turlari orasida applikatsiya alohida o‘rin tutadi. Applikatsiya so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib yopishtirish yoki qo‘ndirish ma‘nosini bildiradi. Ammo bolalar uchun bu shunchaki qog‘ozlarni bir-biriga yopishtirish emas balki o‘z ichki dunyosini aks ettirish yangi bir olamni yaratish jarayonidir. Bugungi kunda ta‘lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat tayyor bilimlarni berish balki bolani mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Applikatsiya mashg‘ulotlari bolaning barmoq mushaklarini rivojlantirish bilan birga uning mantiqiy fikrlashini ranglarni his qilishini va fazoviy tasavvurini kengaytiradi. Bola o‘z qo‘llari bilan yaratgan kichik bir shakl uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va unda yaratuvchanlik zavqini uyg‘otadi. Ushbu mavzuda biz applikasiyaning bolalar rivojlanishidagi o‘rni uning noodatiy usullari va ijodkorlikni oshirish sirlari haqida batafsil so‘z yuritimiz.

Pedagogika va psixologiya fanida isbotlangan bir haqiqat bor insonning aqli uning barmoqlari uchida joylashgan. Applikatsiya jarayonida bola mayda detallar bilan ishlaydi qog‘ozni qirqadi buklaydi va aniq joyga yopishtirishga harakat qiladi. Bu harakatlar bevosita miyaning nutq va tafakkur markazlarini faollashtiradi. Mayda motorika qanchalik yaxshi rivojlansa bolaning nutqi shunchalik ravon va fikrlashi tiniq bo‘ladi. Applikatsiya mashg‘ulotlarida bola tahlil qilishni va sintez qilishni o‘rganadi. Masalan bitta butun rasmni yaratish uchun u qismlarni yig‘ishi kerak. Bu jarayonda u “butun” va “qism” tushunchalarini amalda tushunib yetadi. Bu oddiy matematik tasavvurlarning shakllanishiga ham katta yordam beradi. Bola shakllarni bir-biriga solishtiradi qaysi biri katta qaysi biri kichik qaysi biri tepada yoki pastda turishi kerakligini mustaqil hal qiladi. Mana shu mustaqil qaror qabul qilish jarayoni bolada ijodiy erkinlikni tarbiyalaydi. An’anaviy applikatsiya deganda biz odatda rangli qog‘oz va yelimni tushunamiz.

Biroq bolalar ijodini rivojlantirish uchun bu chegarani buzish kerak. Bolalarga noodatiy materiallar taklif qilinganda ularning qiziqishi bir necha barobar ortadi. Masalan mato bo'laklari bilan ishlash. Har xil teksturadagi matolar (ipak, baxmal, jinsi) bolaning taktil sezgisini rivojlantiradi. Bola yumshoq va qattiq silliq va g'adir-budir narsalarni ajratishni o'rganadi. Yoki don-dunlar (guruch, grechka, mosh) bilan ishlash. Bu nafaqat applikasiya balki barmoqlar uchun ajoyib massaj hamdir. Donlardan yasalgan rasmlar hajmli va haqiqiy ko'rinishga ega bo'ladi. Tabiiy materiallar quritilgan barglar gullar daraxt po'stloqlari va urug'lar. Bular bolani tabiat bilan bog'laydi. Kuzgi barglardan yasalgan hayvonlar rasmi bolaning tasavvurini boyitadi. Shuningdek chiqindi materiallar bilan ishlash (gazeta bo'laklari, tugmalar, plastik qopqoqlar) bolaga tejamkorlikni va har qanday narsadan go'zallik yaratish mumkinligini o'rgatadi. Bu usul ekologik tarbiyaning bir qismi hamdir. Ko'pincha mashg'ulotlarda pedagog tayyor namunani ko'rsatadi va bolalardan xuddi shuni takrorlashni so'raydi. Bu usul bolaning ijodini bo'g'ib qo'yadi. Haqiqiy ijodni rivojlantirish uchun bolaga erkinlik berish kerak. Pedagog tayyor rasm emas balki "g'oya" berishi lozim.

Masalan "Bugun hammamiz ertaknamo daraxt yasaymiz" deb mavzu berilsa va bolalarga turli materiallar taqdim etilsa har bir bolaning daraxti o'zgacha chiqadi. Biri barg o'rniga tugma yopishtiradi biri rangli qog'ozni yirtib yopishtiradi. Mana shu yerda individual ijod boshlanadi. Pedagog bolani xatosi uchun urishmasligi balki uning noodatiy yechimini maqtab rag'batlantirishi kerak. Agar bola osmonni pushti rangda ko'rayotgan bo'lsa bu uning ijodiy dunyosidir. Unga xalal bermaslik aksincha "Nega aynan pushti rangni tanlading?" deb savol berish orqali uning fikrini boyitish kerak. Bolalar ijodini rivojlantirishda bir necha innovatsion texnikalardan foydalanish mumkin Yirtma applikasiya: Bunda bola qaychi ishlatmaydi qog'ozni qo'li bilan kichik bo'laklarga bo'ladi. Bu usul barmoqlar mushaklarini mustahkamlash uchun juda foydali va rasmga o'ziga xos "tiriklik" bag'ishlaydi.

Qog'ozni buklash o'rash yoki gofralash orqali 3D ko'rinishidagi rasmlar yaratish. Bu bolaning fazoviy fikrlashini bir necha barobar o'stiradi. Mozaika usuli: Kichik kvadrat yoki aylana shakllardan bitta katta tasvirni yig'ish. Bu bolada chidam sabr-toqat va diqqatni jamlashni tarbiyalaydi. Kollaj texnikasi: Bir nechta turdagi materiallarni (rasm, mato, tabiiy material) bitta kompozitsiyada birlashtirish. Bu usul bolaga cheksiz tajriba o'tkazish imkonini beradi. Applikasiya faqat rasm chizish yoki yasash emas balki bu ruhiy terapiyadir. Bola rasm chizayotganda yoki applikasiya qilayotganda o'z xavotirlarini qo'rquvlarini yoki quvonchini qog'ozga tushiradi. Ranglar tanlovi orqali uning kayfiyatini bilib olish mumkin. Yorqin ranglar quvonchni qora yoki jigarrang ranglar esa ichki siqilishni anglatishi mumkin. Estetik tarbiya nuqtai nazaridan bola go'zallikni yaratishni va uni qadrlashni o'rganadi. U o'z ishi tugagandan so'ng unga qarab zavqlanadi. Bu zavq bolada san'atga nisbatan muhabbat uyg'otadi. Atrofdagi olamning go'zalligini his qiladigan bola hech qachon yovuzlikka qo'l urmaydi. Chunki yaratishni biladigan inson buzishni xohlamaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin yetakchi faoliyatdir. Shuning uchun applikasiya mashg'ulotlarini ertak yoki o'yin tarzida o'tkazish samarali. Masalan, „Kichkina quyoncha adashib qoldi unga uycha yasab beramizmi?“ deb darsni boshlash bolada motivatsiyani uyg'otadi. U shunchaki topshiriqni bajarmaydi balki quyonchaga yordam beradi. Bu esa bolada emansipatsiya va rahm-shafqat tuyg'ularini ham rivojlantiradi. Mashg'ulot yakunida bolalarning ishlaridan ko'rgazma tashkil etish juda muhim. Bola o'z ishining devorda osig'li turganini ko'rsa u o'zining mehnatini qadrlashni o'rganadi. Boshqa bolalarning ishlarini ko'rib ulardan o'rnak oladi yoki taqqoslaydi. Bu jarayonda tanqid emas balki bir-birining ishidan zavqlanishni o'rgatish pedagogning mahoratiga bog'liq.

Xulosa: Applikatsiya mashg'ulotlari bolalar ijodini rivojlantirishda beqiyos imkoniyatlar eshigidir. Bu faoliyat orqali biz nafaqat rassom yoki san'atshunosni balki har qanday vaziyatda ijodiy yechim topa oladigan mustaqil shaxsni tarbiyalaymiz. Applikatsiya jarayonida bola o'z qo'llari bilan mo'jiza yaratishni o'rganadi va bu uning butun umri davomida yaratuvchanlikka bo'lgan ishtiyoqini saqlab qoladi. Bizning vazifamiz bolaga faqat qaychi bilan ishlashni o'rgatish emas balki uning qalbidagi ijod olovini yoqishdir. Agar bola applikatsiya orqali o'zini baxtli his qilsa demak biz maqsadimizga yetgan bo'lamiz. Tabiat kabi keng xilma-xil va rang-barang applikatsiya mashg'ulotlari kelajak avlodning intellektual va estetik boyligiga aylanishi shubhasizdir. Har bir qirqilgan qog'oz bo'lagi ortida bolaning kichik kashfiyoti va katta orzulari yashiringan bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shodmonova Sh.S. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. 2017.
2. Babaeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. 2018.
3. Hasanova Sh.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatni o'rgatish 2019.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. 2020.
5. Nurmatova M.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalashda qo'l mehnati mashg'ulotlari 2021.